

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**G‘ANIYEV ORIF ABDUXALIKOVICH**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING METAMETODIK  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**G'aniyev Orif Abduxalikovich**

Bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirish  
texnologiyalarini takomillashtirish..... 3

**Ганиев Ориф Абдухаликович**

Совершенствование технологий развития метаметодической  
компетентности будущих учителей ..... 21

**Ganiev Orif Abdukhalikovich**

Improving the technologies for developing the metamethodical competence  
of future teachers..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**G‘ANIYEV ORIF ABDUXALIKOVICH**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING METAMETODIK  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Nukus – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Ped2674 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndpi.uz) va «Ziyonet» ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Nurmanov Abdinazar Tashbayevich  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Adizov Baxtiyor Raxmonovich  
pedagogika fanlari doktori, professor

Baymurzaev Azamat Dosmurzaevich  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika inistituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “11” 08 kuni soat 10:40 da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi\_info@edu.uz

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika inistitutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 157 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko‘chasi raqamsiz uy. Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “29” 07 kuni tarqatildi.  
(2025-yil “29” 07 da 157 - raqamli reestr bayonnomasi).



**B.P. Otemuratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, f.m.f.d., professor

**G.K.Kdirbaeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi (v.b), filol.f.d., dotsent

**A.K. Berdimuratova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida jamiyatning taraqqiyotiga asos bo'lgan ta'lim sohasini isloh qilish, sifatli bilim berish, xalqaro standartlarga javob beruvchi kadrlar tayyorlash, o'qitish metodlaridan zamon talablariga mos ravishda foydalanish hamda ta'lim oluvchilarda universal o'quv harakatlarini shakllantirish asosida ularda metametodik kompetensiyani rivojlantirishga oid tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim muammolari bo'yicha butunjahon Forumida "sifatli ta'limni dunyodagi mavjud muammolarni hal qiluvchi vosita sifatida talqin etib, uni rivojlantirish uchun milliy va xalqaro ta'lim tizimlarini muvofiqlashtirgan holda yagona umummilliy tizimni yaratish jarayonida davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish" g'oyasi ustuvor yo'nalish etib belgilanganligi ta'lim muassasalarida kreativ texnologiya va innovatsiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etish, kommunikativ bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirish, zamonaviy o'qitish usullaridan keng foydalanish bo'lajak o'qituvchilarda metametodik kompetensiyani rivojlantirishning zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo oily ta'lim tizimida innovatsion pedagogik muhitni yaratish, o'qitishning yangi paradigmalarini ishlab chiqish, nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish hamda bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirish orqali o'z faoliyatini samarali tashkil eta oladigan, mustaqil yangi bilimlarni egallay oladigan va o'z kasbiy malakalarini doimiy rivojlantirishga qodir mutaxassislarini tayyorlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy tez o'zgaruvchan dunyo uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ta'lim oluvchilarni hayotga tayyorlash, ularda mustaqil yangi bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'minlovchi universal o'quv harakatlarni tarkib toptirish, ushbu jarayonning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarda metametodik kompetensiyani rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi, prinsiplari, didaktik ta'minotini ishlab chiqish va uni integrativ yondashuv asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "...mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash"<sup>1</sup> vazifasi belgilanganligi nafaqat mutaxassislar tayyorlashning yangi tendensiyalari va yo'nalishlarini, balki bo'lajak o'qituvchilar javob berishi kerak bo'lgan tashabbuskorlik, mobillik, murakkabligi har xil darajadagi kasbiy vazifalarni bajarishga hamda metametodik tayyorlik talablarni ham belgilab berdi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni. – QHMMB, 07.11.2020. 06/20/6108/1483-son.

Bu borada oliy ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan didaktik sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifati va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27-fevraldagi PQ-4623 son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid qator boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchining kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish, o'quv mashg'ulotlari va ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari Respublikamizda R.X.Jo'rayev, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, U.Begimqulov, A.T.Nurmanov, Sh.K.Mardonov, B.R.Adizov, R.B.Yarmatov, O.A.Qo'ysinov, G.T.Boymurodova, F.A.Raxmatova, M.E.Jumayev, U.A.Masharipova, M.I.Toshpulatova, I.S.Soliyevlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarining N.S.Podxodova, A.V.Xutorskoy, A.T.Asmolov, G.A.Andriyanova, O.V.Baranova, O.A.Salnikova, I.M.Titova, A.B.Afanasyeva, M.P.Voyushina kabi pedagog-olimlari tomonidan zamonaviy ta'limning metapredmetli mazmuni, ta'lim jarayoniga metametodik yondashuvning joriy etilishining o'ziga xos xususiyatlari, prinsiplari va bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida metametodik yondashuvning ahamiyati ochib berilgan bo'lsa, A.T.Asmolov, T.Ye.Demidova, T.A.Solovyevalarning tadqiqotlarida universal o'quv harakatlarini rivojlantirish konsepsiyasi asosida ta'limda integratsiya jarayonlarini anglashning yangi bosqichida pedagogikaning istiqbolli yo'nalishi sifatida metametodikaning shakllanish masalalari atroflicha muhokama etilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda bo'lajak mutaxassislarining maqsadni aniq qo'ya bilish, teskari aloqani amalga oshirish, refleksiya va nazorat, o'zini o'zi adekvat baholash va metametodik kompetentlikni rivojlantirish xususiyatlari kabi masalalar D.Billing, J.Callens, J.Elen, V.B.Mansilla, A.Jackson, D.L.Hanuscin, L.Zangori, J.Fuente, L.A.Cook, W.S.Smith, W.Y.Lan, D.Carpenterlar tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Uzluksiz ta'lim tizimini texnologiyalashtirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligi va uning tarkibiy komponentlarining mazmuni, shart-sharoitlari, strukturasi va tarkibiy elementlarini tahlil qilish hamda ularning pedagogik potensialini aniqlashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligining rivojlanganlik darajasini tizimli tahlil qilish hamda jarayonni ob'yektiv baholashga qaratilgan indikator va mezonlarni o'zaro moslashtirish orqali takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish modeli tizimli tasavvurga qaratilgan komponentlarni kiritish hamda metametodik kompetensiya strukturasi tarkibiy elementlarining ichki imkoniyatlarini kuchaytirish orqali takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirish hamda ularning yaxlitlashgan ko'rinishi bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, 2021-2024 yillar davomida tajriba-sinov ishlariga Jizzax davlat pedagogika universiteti (tajriba guruhi – 74, nazorat guruhi - 74), Qo'qon davlat pedagogika instituti (tajriba guruhi – 73, nazorat guruhi - 74), Chirchiq davlat pedagogika universitetlarining (tajriba guruhi – 76, nazorat guruhi - 72) - jami 443 nafar boshlang'ich ta'lim yo'nalishi (tajriba guruhi–223, nazorat guruhi - 220) respondent-talabalari jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmeti.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlil etish; modellashtirish; empirik metodlar (kuzatish, suhbat, anketa, test); pedagogik eksperiment; hujjatlarni tahlil qilish (DTS, o'quv reja, fan dasturlari); matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi retrospektiv tahlil asosida metabilim, metako'nikma va metamalakalar bilan universal o'quv harakatlarini (shaxsiy, regulyativ, kognitiv, kommunikativ) integratsiyalashga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligining rivojlanganlik darajasi ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va ob'yektiv baholashga qaratilgan regulyativ, shaxsiy, bilishga oid va kommunikativ indikatorlar hamda motivatsion, kognitiv, reflektiv kabi mezonlarni adaptivlashtirish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish modeli tizimli tasavvurga qaratilgan kompetensiyaviy, faoliyatli, konseptual-maqсадli, tashkiliy-texnologik va baholovchi-natijaviy komponentlarni diversifikatsiyalash hamda metametodik kompetentligining axborot-kommunikatsion, kommunikativ, tashkiliy-metodik, ilmiy-tadqiqotchilik, mustaqil bilim olish va o'zini-o'zi rivojlantirish kabi strukturaviy elementlarining internallik darajasini kuchaytirish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari shaxs intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi qisman izlanuvchan, motivatsion, produktiv va konstruktiv topshiriqlarni fluktuatsion ishlab chiqish hamda "Kontekstli o'qitish", "Virtual ekskursiya", "SWOT-tahlil" va "G'aroyibotlar maydoni" kabi innovatsion metodlarga appersepsion yondoshuvni amalga oshirish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarining o'rni, o'quv jarayoni mazmuni-mohiyati yetarlicha faktlar asosida tahlil qilingan va oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Pedagogik mahorat" nomli darslik chop etilgan;

kompetensiyaviy va metametodik yondashuvlarining yetakchi g'oyalari va qoidalari asosida "boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal o'quv kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi" nomli tanlov fan dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi metametodik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini baholash mezon va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi metametodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining dasturiy-uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan va shu asosida baholash vositalari (testlar) ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotning o'zaro bir biriga zid bo'lmagan mantiqiy va nazariy asoslari, tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan, androgogik yondashuvlar integratsiyasi, tajriba-sinov ishlari jarayonida tadqiqot maqsadi, vazifalari va shart-sharoitlariga adekvat nazariy va empirik metodlardan foydalanilganligi hamda tadqiqot natijalarining aprobatsiyadan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari, metodika, metametodika, metamavzu, metapredmet, metametodik kompetensiya kabi tushunchalarning ilmiy-pedagogik mohiyati ochib berilganligi hamda bo'lajak

o'qituvchining metametodik kompetentligini rivojlantirish prinsiplari va pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan tanlov fan dasturining ishlab chiqilganligi, kompetensiyaviy, tizimli, integrativ va metametodik yondashuvlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida talabalarning metametodik kompetensiyalarini rivojlantirish modelining takomillashtirilganligi, bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalariga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan pedagogika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida ta'lim mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metametodik kompetensiyani rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi retrospektiv tahlil asosida metabilim, metako'nikma va metamalakalar bilan universal o'quv harakatlarini (shaxsiy, regulyativ, kognitiv, kommunikativ) integratsiyalashga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalar "Pedagogik mahorat" nomli darsligining mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-son buyrug'i, 333-179-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirishga erishilgan.

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligining rivojlanganlik darajasi ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va ob'yektiv baholashga qaratilgan regulyativ, shaxsiy, bilishga oid va kommunikativ indikatorlar hamda motivatsion, kognitiv, refleksiv kabi mezonlarni adaptivlashtirish orqali takomillashtirishga oid xulosalar "Pedagogik mahorat" nomli darsligining mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-son buyrug'i, 333-179-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetentligini rivojlantirishning mazmunini ochib berishga erishilgan.

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish modeli va texnologiyalari tizimli tasavvurga qaratilgan kompetensiyaviy, faoliyatli, konseptual-maqсадli, tashkiliy-texnologik, baholovchi-natijaviy komponentlarni diversifikatsiyalash, metametodik kompetensiyaning axborot-kommunikatsion, kommunikativ, tashkiliy-metodik, ilmiy-tadqiqotchilik, mustaqil bilim olish va o'zini-o'zi rivojlantirish kabi strukturaviy elementlarining internallik darajasini kuchaytirish va shaxs intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi qisman izlanuvchan, motivatsion, produktiv, konstruktiv topshiriqlarni fluktuatsion ishlab chiqish hamda "Kontekstli o'qitish", "Virtual ekskursiya", "SWOT-tahlil" va "G'aroyibotlar maydoni" kabi innovatsion metodlarga appersepsion yondoshuvni amalga oshirish orqali takomillashtirishga oid takliflar "Pedagogik mahorat" nomli darslikning

mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-son buyrug'i, 333-179-raqamli guvohnoma). Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 1 ta darslik, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 3 tasi xorijiy va 4 tasi Respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, xulosa va tavsiyalar hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 121 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti tavsiflangan, Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasi mazmun va mohiyati, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi strukturasi hamda bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini takomillashtirish prinsiplari, mezon va ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar nazariy yoritib berilgan.

Hozirgi texnika va texnologiya rivojlangan davrda ta'lim tarbiya berish, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o'qituvchidan nafaqat kommunikativ kompetentlik, bilimdonlik, balki ta'limga psixologik yondashuv bilan bir qatorda fanlar integratsiyasini amalga oshirish talab etilmoqda. Integratsiya - tiklash, to'ldirish kabi ma'nolarni anglatib, pedagog olimlarimizning ilmiy izlanishlari va ilmiy asarlaridan bizga ma'lumki, fanlararo aloqadorlik, ya'ni bir fanga oid tushunchalarning mohiyatini anglashda boshqa fanga oid ma'lumotlarga tayanish tushuniladi.

Metod - umumiy ma'noda maqsadga erishish, ma'lum bir vazifaning bajarilish usulidir: borliqni nazariy yoki amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir. Tushunishimizcha, metodik tayyorgarlik mavzu doirasidagi tushunchalarni o'rgatishga, mavzu yuzasidan qo'yilgan ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu degani

bir darsga mo'ljallangan materialni o'quvchilarga tushunarli yetkazib bera olishda qo'llaniladigan bir qancha usullar yig'indisini anglatadi.

Metodika esa ana shunday usullar, metodlar va vositalar haqidagi fan hisoblanadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik yuzasidan fanlar bo'yicha metodikalarni o'qitish yo'lga qo'yilgan. Uning negizida pedagogik faoliyatni amalga oshirishda metodik kompetentlik shakllantiriladi. Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash qobiliyatining shakllanganligidir.

Metametodika - sifat jihatidan yangi ta'lim natijasini olishga qaratilgan bo'lib, umuminsoniy bilim va ko'nikmalarning ichki variantlarini ajratib ko'rsatish orqali ta'lim mazmunini optimallashtirish uchun imkoniyatlar va vositalarni taqdim etadi, ta'lim faoliyatining davomiyligida yangi ma'lumotlarni qayta ishlash va yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun samarali qo'llaniladi.

Ushbu ma'noda metametodikaning integratsion-mazmuniy va tashkiliy-faoliyatli jihatlari ajratib ko'rsatiladi. Birinchi aspekt doirasida metametodika turli xil fanlarni o'qitish metodikalari mazmunini, asosiy tushunchalarini integratsiyalash asosida o'quvchilarda dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirish yo'llarini, ya'ni, ushbu jarayonning nazariy-metodologik asoslarini hamda amaliy-metodik jihatlari tadqiq etadi. Pedagogikada ushbu vazifa oxirigacha hal etilmagan. Ayni paytda ushbu muammoning ayrim jihatlari integratsiyalashgan kurslar tashkil etish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'z ifodasini topmoqda, turli xil fanlarga umumiy bo'lgan tushunchalarni tanlash orqali ularni integratsiyalash bilan bog'liq tadqiqotlar ham mavjud.

Metametodikaga ma'lum metodlarga bog'liq bo'lmagan, ammo ularni birlashtirgan, didaktikaga parallel ravishda mavjud bo'lgan, o'qitishning umumiy metodologik tamoyillarini shakllantiradigan va o'qitish muammolarini o'rganishda o'ziga xos usullarga ega bo'lgan fan sifatida qarashlar ham mavjud.

“Meta” lug'aviy ma'nosi “universal, har qanday bilim sohasiga taalluqli” degan ma'noni anglatadi. Bu ma'lum bir o'quv predmeti bilan bog'liq bo'lgan faoliyat, balki har qanday fan doirasida o'quv jarayonini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining “metametodik kompetensiyasi” ilmiy pedagogik muomalaga endi kirib kelayotgan tushuncha sifatida qo'llanilib, davlat ta'lim siyosatida rasmiy e'tirof etilmagan.

Shuning uchun tadqiqotimizda, birinchi navbatda, metametodik kompetensiya tushunchasi mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

“Metametodik kompetensiya” tushunchasi, bir tomondan metodika bilan, boshqa tomondan esa metodikaga nisbatan metapozisiyani egallaydi, yani metodikadan boshqa sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni mavjudligidan dalolat beradi. Bunday bilim, ko'nikma va malakalar nafaqat ma'lum bir fan yoki uni o'qitish metodikasi doirasida, balki fanlar integratsiyasi doirasida hamda undan tashqarida, ya'ni ta'lim oluvchining mustaqil faoliyati natijasida

ham shakllanadi. Demak, metametodik kompetensiya fanlararo darajada shakllanib, ta'lim natijalariga nisbatan eng universal (umumiy) talablarni ifodalaydi. Ilmiy tahlillarimiz, pedagogik faoliyatni amalga oshirish, ta'lim - tarbiya jarayonida o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirishida eng qulay va to'g'ri bo'lgan yondashuvlarni amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

*Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi tushunchasini quyidagicha ta'rif beramiz. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi bu – o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil o'zlashtirishga qaratilgan, ularda universal o'quv harakatlarni integratsiyalashga yo'naltirilgan integrativ sifatlarni majmuasidir. Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi bu – boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha umumiy, integrativ bilim, ko'nikma va malakalardir ya'ni metabilim, metako'nikma va metamalakalardir.*

Bizning tadqiqotimizda metametodik yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyalarini ularning bo'lajak kasbiy faoliyatida, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida metapredmetli kompetensiyalarni shakllantirish qobiliyati va tayyorligi sifatida belgilashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metametodik kompetensiyalarni shakllantirish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlar darajasida o'quvchilarda universal o'quv harakatlarini (shaxsiy, regulyativ, bilishga oid (kognitiv), kommunikativ) shakllantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.


2. Metadarajadagi metametodik (metapredmetli) natijalar – bo'lajak o'qituvchi tomonidan nafaqat o'quv faoliyatida, balki, o'quv faoliyatidan tashqarida, ya'ni mustaqil bilim olish jarayonida qo'llaniladigan metabilim, metako'nikma va metamalakalarni egallash.

3. Shaxsiy darajadagi metapredmetli natijalar – talabning raqobatbardosh bo'lajak mutaxassis sifatida kasbiy shakllanishiga imkoniyat beruvchi shaxsiy sifatlari - faollik, tafakkur egiluvchanligi, o'zini o'zi takomillashtirish istagi, o'zlashtirish tezligi va kasbiy jihatdan fanlar integratsiyasi muhim ekanligini inobatga olish.

Boshlang'ich ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi tarkibiy elementlarini yanada oydinlashtirish mumkin. Ushbu maqsadda tadqiqotlarimiz davomida 60110400 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi 1, 2, 3-4 kurslari uchun mo'ljallangan davlat ta'lim standarti (DTS) talablari tahlil qilindi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi strukturasi quyidagilar asosiy o'rinni egallashi lozim degan xulosaga kelindi:

1. Axborot-kommunikasiya texnologiyalariga oid kompetensiyalar va mediasavodxonlik.
2. Kommunikativ kompetensiya.
3. Tashkiliy-metodik kompetensiya.
4. Ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasi.
5. Mustaqil bilim olish, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi.
6. Baholash kompetensiyasi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Metametodik kompetensiya strukturasi

Har qanday pedagogik jarayon, jumladan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni samaradorligi natijalarning ilmiy asoslangan ob'yektiv mezon va ko'rsatkichlar asosida baholash orqali aniqlanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida ushbu kompetensiyalarning shakllanganlik va rivojlanganlik darajalarini ob'yektiv baholashga qaratilgan diagnostik vositalar ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi "**Bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirishning amaliy – texnologik tizimi**" deb nomlanadi. Ushbu bobda bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlari, bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion metod, shakl va vositalari hamda bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish modeli o'z ifodasini topgan.

Pedagogik shart-sharoitlar pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining metametodik kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi birinchi navbatda ta'lim oluvchilarning motivasiyasiga bog'liq:

bo'lajak o'qituvchilarning rivojlanish maqsadlarini shakllantirish va metametodik kompetensiyasini o'zida-o'zi rivojlantirishga yo'naltirilgan motivasion shart-sharoitlar;

konstruktiv-integratsion shart-sharoitlar, turli darajalardagi innovasion elektron o'quv vazifalar, fan, fanlararo va transdissiplinar integrativ kurslarni ishlab chiqish va joriy etish;

pedagogika oliy ta'limida universal o'quv faoliyatini tashkil etishni taminlashga yordam beruvchi tashkiliy - metodik shart-sharoitlar, bu esa bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metametodik kompetensiyasini rivojlantirishga amaliy yordam beradi;

kommunikativ shart-sharoitlar (ta'lim beruvchining kommunikativ madaniyatini takomillashtirish, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi sub'yekt-sub'yekt munosabatlarni qaror toptirish), samarali muloqot texnologiyalari va texnikasi bilan amaliy tanishtirish, bu talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun o'quvchilarda universal ta'lim harakatlarini shakllantirishga qaratilgan tanlov fan dasturi ishlab chiqildi va tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotga joriy etildi. Ushbu dasturning amalga oshirilishi natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda metametodik o'quv harakatlarini shakllantirish bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarlikka pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda metametodik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida metametodik (universal) o'quv harakatlarini shakllantirish texnologiyasi" nomli tanlov fan dasturi o'z ichiga, bir tomondan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal o'quv harakatlarini shakllantirish maqsad va vazifalarini, metod, shakl va vositalarini qamrab olsa, ikkinchi tomondan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu jarayonga tayyorlash, ularda metametodik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirildi.

"Boshlang'ich sinf o'quvchilarida metametodik (universal) o'quv harakatlarini shakllantirish texnologiyasi" tanlov fanini o'qitishdan maqsad – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metametodik kompetentlikni qaror toptirish, ya'ni ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal o'quv harakatlarini shakllantirish jarayoniga tayyorlash, ushbu jarayonni samarali amalga oshirishni ta'minlashdan iborat.

Ushbu tanlov fanini o'zlashtirish natijasida bitiruvchi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini modellashtirish tadqiqot maqsadini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biridir.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, har qanday model bir qator talablarga javob berishi kerak:

- model ochiq bo'lishi, yani o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- ko'p sonli o'zgaruvchilar bilan ishlash imkoniyatini berishi, ayni paytda ishonchlilikka shubxa tug'dirmasligi;
- qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun belgilangan muddatlarga rioya qilinishi;
- realistik bo'lish, ya'ni ijtimoiy rivojlanish sur'atlariga mos kelishi;
- ijtimoiy ob'yekt, hodisa, jarayon haqida yangi foydali ma'lumotlar olishni ta'minlashi;
- belgilangan terminlardan foydalangan holda qurilgan bo'lishi;
- uning haqiqiyliги, ijtimoiy obyekt hodisa va jarayonga to'liq muvofiqligini tekshirish imkoniyatining mavjudligi.

Modelning **maqsadli komponenti** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish strategik maqsadlarining vektorli harakatini aks ettiradi va tadqiqotda ko'rsatib o'tilgan metametodik kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi elementlarini rivojlantirishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirishda o'z ifodasini topadi.

Modelning **diagnostik komponenti** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasi rivojlanganligining boshlang'ich va tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichi natijalarini aniqlashga qaratilgan.


Taqdim etilayotgan modelning **mazmuniga oid komponenti** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini mazmunan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, o'z ichiga tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar, tanlov fan bo'yicha mashg'ulotlar, takomillashtirilgan baholash mezon va ko'rsatkichlar hamda innovasion shakl, metod va vositalar bloklarini qamrab oladi.

Modelning **texnologik komponenti** talabalarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan an'anaviy ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot texnologiyalari bilan bir qatorda kontekstli o'qitish, keys stadi, loyiha, diskussiya, o'yin texnologiyalari, interaktiv innovasion metodlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu texnologiyalar bilan bir qatorda samarali muloqot texnologiyalari, aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish texnologiyasining imkoniyatlari qamrab olingan. Bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda ushbu jarayonning natijasi sifatida talabalarda metametodik kompetentlik ko'rinishidagi integrativ sifatlar majmuasi nazarda tutildi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni dissertasiya ishimizda yaxlit tizim sifatida o'z ichiga barcha zaruriy komponentlarni qamrab oladi.

Ushbu tizimning konseptual xususiyati bo'lajak o'qituvchining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadi orqali o'z ifodasini topadi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metametodik kompetensiyani rivojlantirishning texnologik modeli**

Tadqiqotlarimiz jarayonida qo‘llanilgan texnologiya va metodlar pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning akademik darajalarining sifati oshadi, universal faoliyat turlariga ijobiy munosabatni shakllantirish orqali kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar rivojlanadi, bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik va shaxsiy kompetensiyalari takomillashadi.

Dissertasiyaning **“Bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida, bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari mazmuni va tajriba sinov ishlarining natijalari bayon etilgan.

Qo‘yilgan vazifalarni hal etish yuzasidan olib borilgan pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishimiz dolzarb hisoblanadi. Shu maqsadda Respublikamizning uchta hududida tajriba-sinov ishlarini olib bordik.

Tajriba-sinov ishlari 2021-2024 yillar davomida Jizzax davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Qo‘qon davlat pedagogika institutlarining boshlang‘ich ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlarida oliy ta‘lim muassasalari bo‘yicha respondentlar taqsimoti quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

**1-jadval.**

**Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talabalari kontingenti**

Oliy ta‘lim muassasalari	Guruhlar	2021-2022	2022–2023	2023–2024	Jami
		Talabalar soni			
Chirchiq davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	24	25	27	76
	Nazorat guruhi	23	25	24	72
Jizzax davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	25	24	25	74
	Nazorat guruhi	26	24	24	74
Qo‘qon davlat pedagogika instituti	Tajriba guruhi	23	25	25	73
	Nazorat guruhi	26	25	23	74
<b>Jami:</b>	Tajriba guruhi	72	74	77	223
	Nazorat guruhi	75	74	71	220

Tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichi oxirida talabalarning metametodik kompetensiyalarining rivojlanish darajalari yana bir bor sinovdan o‘tkazildi. Ushbu jarayonning natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadvalga qarang).


Talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Oliy ta'lim muassasalari nomi	Guruhlar	O'zlashtirish ko'rsatkichlari						
		Talabalar soni	Yuqori		O'rta		Quyi	
			sonda	%	sonda	%	sonda	%
Chirchiq davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	76	15	20,00	45	58,95	16	21,05
	Nazorat guruhi	72	5	7,98	21	28,72	46	63,30
Jizzax davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	74	18	23,68	42	57,89	14	18,42
	Nazorat guruhi	74	7	9,87	23	31,58	44	58,55
Qo'qon davlat pedagogika instituti	Tajriba guruhi	73	14	18,82	37	50,59	22	30,59
	Nazorat guruhi	74	13	17,47	47	63,51	14	18,82
Jami:	Tajriba guruhi	223	47	20,70	124	55,86	52	23,44
	Nazorat guruhi	220	26	11,82	89	40,45	105	47,73

Ushbu jadvallar tajriba guruhidagi pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining metametodik kompetensiyasi shakllanganlik barcha darajalarida muhim o'zgarishlar mavjud tajriba guruhi ustun degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari olingan ma'lumotlar asosida statistik tahlil ishlarini Xi-kvadrat ( $\chi^2$ ) mezonida olib borildi.

Tajriba boshi va oxirida tajriba hamda nazorat guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi rasmda o'z aksini topgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. Tajriba boshi va oxirida tajriba hamda nazorat guruhlarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Hisoblashlardan ko‘rish mumkinki, tajriba guruhining ko‘rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 14,74 % ga oshganligini ko‘rish mumkin. Shunga asosan ta’lim texnologiyasini samarador deyxishga statistik asos bor.

## UMUMIY XULOSA

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tatqiqodlar natijasija quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning mavjud holati o‘rganilib, amaliyotda mavjud muammolar aniqlandi, ushbu muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlari belgilab olindi.

2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, shart-sharoitlari aniqlashtirildi.

3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligining mazmuni, tarkibiy elementlari, metametodik tushunchalarning pedagogik mazmuni ochib berildi.

4. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligi rivojlanganlik darajasini baholovchi mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazildi.

5. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetensiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va samaradorligi isbotlandi.

6. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

7. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligining tarkibiy komponentlari (motivasion, kognitiv (bilishga oid), faoliyatga doir, baholash-refleksiv) mazmuni o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan shaxsiy, regulyativ (maqsadlarni aniqlash, rejalashtirish, bashorat qilish, nazorat, korresiya, baholash, o‘z-o‘zini baholash), bilishga oid hamda kommunikativ ko‘nikmalarini integrativ rivojlantirish orqali ishlab chiqildi.

8. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligining rivojlanganlik darajalarini obyektiv baholashga qaratilgan mezonlar (motivasion, kognitiv, faoliyatga oid, baholash-refleksiv) baholash jarayonida regulyativ, shaxsiy, bilishga oid, kognitiv va kommunikativ indikatorlarni kiritish asosida takomillashtirildi.

9. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirish modeli tizimli tasavvurga qaratilgan kompetensiyaviy, faoliyatli, metametodik va integrativ yondashuvlarning konseptual-maqсадli, mazmunga oid, tashkiliy-texnologik hamda baholovchi-natijaviy komponentlarini integratsiyalash asosida takomillashtirildi.

10. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metametodik kompetensiya strukturasi tarkibiy elementlari (axborot - kommunikasion, kommunikativ, tashkiliy-metodik, ilmiy-tadqiqotchilik, mustaqil bilim olish, o'zini o'zi rivojlantirish, baholash kompetensiyalari)ning o'ziga xos xususiyatlari ularning o'zaro va boshqa kasbiy kompetensiyalar bilan munosabatlarini muvofiqlashtirish asosida takomillashtirildi.

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini rivojlantirishning elektron-didaktik ta'minotini yaratish va pedagogika oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga joriy etish zarur.

bo'lajak o'qituvchilarning metametodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tanlov va qo'shimcha fanlarni joriy etish maqadga muvofiq.

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda universal ta'lim harakatlarini shakllantirishga qaratilgan ichki, fanlararo va transdissiplinar integrasiyalashga asoslangan kurslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metametodik kompetentligini shakllantirish samaradorligi ushbu jarayonda adekvat pedagogik texnologiyalar, metod va vositalardan foydalanishga bog'liq. Talabalarning metametodik kompetentligini rivojlantirish maqsadida turli xil pedagogik texnologiyalar, ularni amalga oshirish metod, shakl va vositalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integrasiyalash maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НУКУССКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ГАНИЕВ ОРИФ АБДУХАЛИКОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ  
МЕТАМЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ  
УЧИТЕЛЕЙ**

**13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)  
по ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2021.3. PhD/Ped2674.

Докторская диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации на трех (узбекский, русский и английский (резюме) языках размещен на сайте Ученого совета (www.nspi.uz) и на Образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Нурманов Абдиназар Ташбаевич  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Адизов Бахтиер рахмонович  
доктор педагогических наук, профессор

Баймурзаев Азамат Досмурзаевич  
доктор философских наук (PhD), доцент

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «11» 08 2025 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 по присуждению ученых степеней при Нукусском государственном педагогическом институте. (Адрес: 230105, город Нукус, улица П.Сейитова, дом б/н. Тел.: (99861) 229-40-75; факс: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi\_info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Нукусского государственного педагогического института (Зарегистрирован за № 157) (Адрес: 230105, город Нукус, улица П.Сейитова, дом б/н. Тел.: (99861) 229-40-75; факс: (99861) 229-40-75

Автореферат диссертации розослан «29» 07 2025 года  
(протокол реестра рассылки № 157 от «29» 07 2025 года.)



**Б.П. Отемуратов**  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н., профессор

**Г.К.Кдирбаева**  
(вр.и.о.) Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.филол.н., доцент

**А.К. Бердимуратова**  
Председатель Научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.ф.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой системе образования проводится системная работа по реформированию сферы образования, являющейся основой развития общества, предоставлению качественных знаний, подготовке кадров, отвечающих международным стандартам, использованию методов обучения в соответствии с современными требованиями, а также развитию у обучающихся метаметодической компетенции на основе формирования у них универсальных учебных действий. На Всемирном форуме по проблемам образования в качестве приоритетного направления определена идея «развития межгосударственного сотрудничества в процессе создания единой общенациональной системы с интерпретацией качественного образования как средства решения существующих проблем в мире и координацией национальных и международных систем образования для его развития», что обуславливает необходимость внедрения креативных технологий и инноваций в систему образования в образовательных учреждениях, развития коммуникативных знаний, умений, навыков и компетенций, широкого использования современных методов обучения, развития метаметодической компетенции у будущих учителей.

В мировой системе высшего образования проводятся научные исследования по созданию инновационной педагогической среды, разработке новых парадигм обучения, развитию интеграции теории и практики, а также подготовке специалистов, способных эффективно организовывать свою деятельность за счет развития метаметодической компетентности будущих учителей, самостоятельно приобретать новые знания и постоянно развивать свои профессиональные навыки. В частности, в ведущих высших учебных заведениях и научных центрах мира актуальное значение приобретают научно-исследовательские работы по подготовке обучающихся к жизни путем формирования у будущих учителей компетенций, необходимых для современного быстро меняющегося мира, формированию универсальных учебных действий, обеспечивающих самостоятельное приобретение ими новых знаний и умений, совершенствованию педагогических механизмов этого процесса.

В условиях инновационной образовательной среды в высших учебных заведениях нашей республики важное значение приобретает разработка практико-технологической системы, принципов, дидактического обеспечения развития метаметодической компетентности у студентов и ее развитие на основе интегративного подхода. Определение в качестве одного из основных направлений дальнейшего развития сфер образования и науки в новый период развития Узбекистана задачи «...подготовки кадров нового поколения с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, способных выступить с новыми инициативами и идеями для развития страны и реализовать их»<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана», 07.11.2020. № 06/20/6108/1483.

определило не только новые тенденции и направления подготовки специалистов, но и требования инициативности, мобильности, методологической готовности к выполнению профессиональных задач различной степени сложности, которым должны соответствовать будущие учителя. В этом отношении важное значение приобретает создание дидактических условий, направленных на развитие метаметодической компетентности обучающихся в системе высшего образования.

